

**TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA MUTAFAKKIRLAR
MEROSIDAN FOYDALANISH**

Muqumova Marjona Muxiddin qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insonning tabiatga nisbatan ongli va hurmatli munosabatini shakllantirishda buyuk mutafakkirlarning ta'limotlari va fikrlari haqida s'z boradi. Maqsad yosh avlodni tabiatni sevish va unga mehr bilan qarashga o'rgatish.*

Kalit s'zlar: *tabiat, mutafakkirlar merosi, ekologik ta'lim, Aristotel, Ibn Sino.*

Tabiat insoniyatning bevosita muhitidir va uning tushunilishi tarixiy rivojlanish jarayonida har doim muhim o'rin tutgan. Ayniqsa mutafakkirlar, olimlar va faylasuflarning tabiatga bo'lgan munosabati ko'plab asrlarda ilm-fanning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

847-yilda Muhammad al-Xorazmiy "Kitob surat al-arz nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar, ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, yerning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Beruniyning tabiatshunoslikka oid "Odam a'zolarining tuzilishi", "Hayvon a'zolari va ularning vazifalari haqida" kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to'xtab o'tilgan. Odam a'zolarining tuzilishi va vazifalari haqida s'z yuritilganda kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi deb tushuntiriladi. Beruniy

asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xohjalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari asosan "Saydana", "Mineralogiya", "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli xil tropik o'simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan. Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur "Kitob ash-shifo" ya'ni "Davolash kitobi" asarida bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya fanlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Yoshlarni tabiat elementlari vositasida tarbiyalash eng avvalo G'arbdagi ilg'or pedagoglarning tarixidan boshlandi. Chexiyalik mashhur pedagog Yan Amon Komenskiyning fikricha inson tabiatning eng gozal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib hamma narsani bilib olishi mumkin. O'zining "Buyuk didaktika", "Fizika", "Falakiyot", "Tinchlik farishtasi" kabi asarlarida muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan. Rus pedagogi K.D Ushinskiy bolalarni tabiatni sevrishga va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish yo'llarini ko'rsatdi. Bolalardagi kuzatish qobiliyatini oshirish, fikrlash xususiyatini rivojlantirish, tabiat haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lish, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni payqay bilish ruhida tarbiyalash kerakligini uqtirdi. V.Odoyevskiy "Fangacha bo'lgan fan" degan kitobida bolalar tarbiyasida tabiatdan foydalanish metodini berdi. Bolalarni tarbiyalash uchun botanikaga murojaat qildi. A.I.Gersen "Tabiatni o'rganish haqida xat" asarida bolalarni tarbiyalashda tabiat vositasidan foydalanishni alohida uqtiradi.

Tabiatni o'rganish nafaqat ilmiy, balki ma'naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Mutafakkirlarning tabiat haqidagi fikrlari o'quvchilarda ilmiy qiziqish uyg'otadi va ularda tabiatga bo'lgan hurmatni shakllantiradi. Ayniqsa, tabiatni insoniyatning bir qismi sifatida qarash, uning muvozanatini saqlash, ekologik mas'uliyatni tushunish, zamonaviy ta'lim tizimida katta o'rin tutadi. Bundan tashqari, mutafakkirlar merosini ta'lim jarayoniga kiritish o'quvchilarda falsafiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, Platonning "Davlat" asaridagi tabiat haqidagi falsafiy qarashlar,

Aristotelning tabiatni ilmiy o'rganishga bo'lgan yondashuvlari va Ibn Sinoning tabiatshunoslikdagi yutuqlari ta'lim tizimiga kiritilishi o'quvchilarni ilmiy izlanishlarga undaydi. Bularning barchasi o'quvchilarga tabiatni faqat tashqi muhit sifatida emas, balki uning qonuniyatlari bilan tanishib, ulardan saboq olish, insonga ta'sirini tushunishga xizmat qiladi. O'quvchilarga Aristotel, Platon, Ibn Sino kabi mutafakkirlarning asarlarini o'qitish, tabiat haqidagi fikrlarini o'rgatish orqali ularda ilmiy va falsafiy tafakkurni rivojlantirish mumkin. Bunday yondashuv o'quvchilarda tabiatni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga yordam beradi.

Mutafakkirlarning tabiat bilan bog'liq amaliy bilimlarini hayotga tatbiq etish, masalan, ekologik masalalar, ekologik muvozanatni saqlash, tabiatni muhofaza qilish kabi mavzularda o'quvchilarga amaliy bilimlarni berish mumkin. Falsafiy va badiiy tafakkur orqali tabiatni estetik jihatdan ham baholash. Bu o'quvchilarda tabiatga bo'lgan ijodiy va estetik yondashuvni rivojlantiradi. Mutafakkirlarning fikrlari, ayniqsa, tabiat va inson o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda, uning hayotdagi o'рни va inson ruhiyati, salomatligi, ijodkorligi uchun zaruriyatini ko'rsatishda muhim ahamiyatga egadir. Aristotel insonni tabiat bilan bog'liq mavjudot deb hisoblagan. Tabiatni tushunish orqali inson o'z ichki olamini va maqsadlarini aniqlashi mumkin.

Xulosa.

Tabiat bilan tanishtirishda mutafakkirlar merosidan foydalanish nafaqat ilmiy, balki ma'naviy jihatdan ham muhimdir. Bu meros insoniyatning tabiatga bo'lgan qarashini, uni o'rganishdagi yondashuvni o'zgartiradi va ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga yordam beradi. O'quvchilarga tabiatni ilmiy va estetik jihatdan o'rganish imkoniyatini berish, ularning tabiatga bo'lgan hurmatini oshiradi va ekologik mas'uliyatni his qilishga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat ilmiy, balki axloqiy rivojlanishga ham turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O.U. Hasanboyeva, X.D. Jabborova " Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi" Toshkent "Cholpon" 2007- yil.
- 2.Q.Haydarov, S.Nishonova "Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish" Toshkent "O'qituvchi" 1992-yil.
- 3.P.A.Yusupova "Bolalarga ekologik tarbiya berish" Toshkent "O'qituvchi" 1995-yil.